



YOSHLARNING IJTIMOYILASHUVIGA INTERNET VA IJTIMOYIY TARMOQLARNING TA'SIRI

O'rolova Begimoy Eshdavlatovna
Qulsoatova Sabo Shodmonovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Maqolada yoshlarning ijtimoiylashuviga internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri masalalari ochib berilgan. Shuningdek, internetning ijobiy va salbiy tomonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, ijtimoiy normalarga zid bo'lgan materiallar, o'smirlar xulq-atvorida og'ishishga sabab bo'luvchi omillar borasida ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. O'smir shaxsi, globallashuv, internetga tobelik, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tarmoqlar, g'oyaviy-mafkuraviy immunitet, axborot, virtual muloqot, psixologik ta'sir.

Shuni alohida qayd etish joizki, internetning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Internetda, ayniqsa, yosh avlod ongiga salbiy ta'sir etuvchi ma'lumotlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-axloqni yemiruvchi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq. Keyingi paytlarda internet bilan bog'liq buzg'unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda. G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda.

O'zlarini "yaqin do'st" yoki "hidoyatga chorlovchi" sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmoqda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yo'q, faqatgina to'da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog'orasiga o'ynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval din-u diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so'zlarni gapirib, g'o'r yoshlarni yo'ldan urib, oxir-oqibatda, razolat qurboniga aylantirmoqda. Internetdan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot-xabarlarni haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga soladi. Bundan tashqari o'smirlar internetda ko'p vaqt sarflashi hisobiga



Learning and Sustainable Innovation

ular da kitob o'qishni xohlamaslik, shuningdek, chat va forumlarda virtual muloqot bilan cheklanishlari tufayli ularning ijtimoiy doirasi kamayishi, kompyuter o'yinlariga haddan tashqari va ba'zan kuchli ishtiyoq bilan namoyon bo'ladigan tajovuzkorlik holatlari ko'payib bormoqda[7].

Bularning barchasi shaxsning bosqichma-bosqich tanazzulga uchrashiga olib keladi, chunki o'z tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiynalayotgan, asotsial o'smirlar jamiyatdagi muammolarni yanada kuchaytiradi. Shu o'rinda "Internet" tushunchasining mohiyatiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Internet global kompyuter tarmog'i bo'lib, u World Wide Web deb ham ataladi. Mazkur zamonaviy manba orqali bugungi kunda kinoteatr yoki san'atkorlar konsertiga borish, kutubxonada o'tirish, bozor yoki savdo markazlarida xaridlar bilan ovora bo'lish shart emas, balki kompyuter qurilmasidagi monitor oqali barcha kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Ko'pgina yoshlar uchun internetdan ko'ngilochar vosita sifatida foydalanadi, uning qimmatli bilimlar manbayi ekanligi hamda o'quv faoliyatida yordamchi qurolligi ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Eng ommabop ijtimoiy tarmoqlar sifatida Instagram, Telegram, TikTok va Facebook qayd etildi. Tahlil: Ushbu natijalar internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Yoshlarning aksariyati internetdan har kuni foydalanadi va ijtimoiy tarmoqlarda sezilarli vaqt sarflaydi[8].

Bu ularning psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazadigan yoshlarda depressiya, xavotirlik va o'ziga past baho berish alomatlari ko'proq uchraydi. Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda o'zini boshqalar bilan solishtiradigan yoshlar o'zlarining tashqi ko'rinishi, yutuqlari va ijtimoiy hayotidan ko'ngli to'lmasligini bildirishdi. Ushbu natijalar ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda o'zini boshqalar bilan solishtirish, ideal tasvirlarga intilish va onlayn ta'qiblarga duchor bo'lish depressiya, xavotirlik va o'ziga past baho berishga olib kelishi mumkin. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborishi mumkin. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ong-u shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviymafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar



Learning and Sustainable Innovation

ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Shunga qaramasdan, ayrim o‘smirlar kompyuter va internetdan ta‘limiy maqsadlarda foydalanishadi[6].

O‘smirlar tomonidan o‘ynaladigan turli o‘yinlar shunchaki qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishi bilan bir qatorda, ayrimlari ularning hayoti va salomatligiga jiddiy xavf solishi mumkin. Ko‘plab saytlar o‘smirlar va yoshlarning balog‘at yoshida kuzatiladigan psixologik va emotsional o‘zgarishlar, xulq-atvoridagi o‘ziga xosliklardan unumli foydalanib, yaqin insonlari bilan nizolivaziyatlarga duch kelganda va ruxsat etilmagan saytlarga kirishga moyilligi yuqori bo‘lgan paytda o‘zlariga jalb qiladi. Internet mavhum hodisa bo‘lib, uning o‘smirlarga ta‘siri ham xuddi shunday noaniqdir. Bu esa uning chegaralari yo‘qligi sabab salbiy oqibatlarga olib keladi, ya‘ni o‘smirlarni ijtimoiy normalarga zid bo‘lgan turli axborot va ma‘lumotlardan himoya qila olmaydi. Foydali ma‘lumotlar bilan bir qatorda, giyohvand moddalar, o‘z joniga qasd qilish holatlari, terrorchilar harakatlari, pornografiya materiallari mavjud bo‘lib, ular hali ma‘naviy qadriyatlar to‘la shakllanmagan yoshlar uchun katta xavf tug‘diradi. Jumladan, barchaga ma‘lum bo‘lgan internetdagi shov-shuvli o‘yinni bunga yorqin misol sifatida olish mumkin, ya‘ni «Moviy kit» deb ataluvchi mazkur o‘yin muhokamalarsiz bajarishni talab qiladigan provokatsion vazifalar, o‘smirlarni yakunida o‘z joniga qasd qilishga undovchi shafqatsiz ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Unda ishtirok etish psixologik immuniteti sust bo‘lgan ko‘plab bolalarning hayotiga zomin bo‘ldi. Kattalar tomonidan to‘g‘ri nazorat qilinmasa, yoshlar ijtimoiy tarmoqda salbiy axborot va psixologik ta‘sirlar natijasida manipulyatsiya obyektiga aylanadi[5]. Yoshlarning axborot urushi quroli sifatida foydalanilishi, ommaviy norozilik aksiyalariga jalb etilishi odatiy hol emas. Bolaning ijtimoiy tarmoqlar orqali ekstremistik guruhlariga, faoliyati g‘ayri ijtimoiy, noqonuniy, shu jumladan, jinoiy harakatlarni sodir etishga qaratilgan buzg‘unchi diniy tashkilotlarga jalb qilish ehtimoli bola uchun alohida xavf hisoblanadi. Bularning barchasi o‘sib kelayotgan yosh avlodlar uchun jiddiy salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. Internetning o‘smirlarga ijobiy ta‘sirlari ham mavjud bo‘lib, ular sirasiga ilmiy-ma‘rifiy ma‘lumotlarni qidirish va ulardan samarali foydalanish kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, internet orqali insonlar uzoq vaqtdan beri ko‘rmagan eski do‘stlarini topishi, ish qidirishi kabi imkoniyatlarga ega. Millionlab imkoniyati cheklanganlar masofadan turib ishlashi hamda do‘stlari bilan muloqot qilishi mumkin. Internetda barcha turdagi adabiyotlarning ulkan kutubxonalari mavjud, birinchi navbatda, ilmiy adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, internet haqiqatan ham eng katta ma‘lumotlar to‘plamidir. Internetdan ko‘p narsalarni o‘rganish, kasb-hunar egallash yoki insonlar o‘z mahoratini yanada yuqori darajaga ko‘tarish imkonini beradi[9].



Internet imkoniyatlari deyarli cheksiz bo'lishiga qaramay, "World Wide Web" hech qachon do'stlar bilan birga bo'lish va jonli muloqotning xursandchiliklaridan bahra olishning o'rnini bosa olmaydi. Internet ta'sirining salbiy tomonlari shundaki, unda yoshlar uchun ayanchli oqibatlarini keltirib chiqaradigan turli ma'lumotlar o'rin olgan. Jumladan, suitsidga da'vat etuvchi, giyohvand moddalar, spirtli ichimliklarni targ'ib qiluvchi, turli terrorchilik harakatlarini sodir etishga undovchi guruhlar har xil saytlarda faol bo'lishadi. Bunday saytlarga a'zo bo'lgan kishilar o'z joniga qasd qilishi, sovuq qurollar va giyohvand moddalarni sotib olishi hamda ulardan qanday foydalanishni o'rganib olishi mumkin. O'smirlar esa bunday toifadagi ma'lumotni tezda o'zlashtirib oladi. Darhaqiqat, bugun axborot chunonam ko'p va tez kirib kelayaptiki ularni "hazm" qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa internet olami farzandlarimiz e'tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o'yinlari haqida ham shunday misollarni keltirish mumkin[4].

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun shunday zo'ravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'ravonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi. Turli jangovar, mentalitetimizga mos bo'lmagan, ba'zan qahramonlik vahshiylikka o'tib ketadigan bu kabi o'yinlar o'smirlar axloqiy-estetik tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir qarashda ular oddiy o'yindek ko'ringani bilan zo'ravonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy oqibatlarga olib kelgani xususida hayotiy misollar ko'plab topiladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida bugungi kun yoshlari uchun quyidagi takliflar berish mumkin: hech qachon notanish kishilar tomonidan yuborilgan elektron pochta xabarlarini ochmaslik lozim, chunki bunday fayllar barcha ma'lumotlarga zarar yetkazuvchi viruslar yoki kompyuter tizimlariga salbiy ta'sir etuvchi har qanday dasturlarni o'z ichiga olgan bo'lish ehtimoli mavjud. Shuningdek, kompyuter va shaxsiy qurilma parollarini doimo ehtiyotkorlik bilan saqlash, o'zgalarga ma'lum qilmaslik kerak. Hech qachon keraksiz xabarlar, takliflarga javob bermaslik, bunday holatlar tez-tez takorlansa, ota-ona yoki yaqin qarindoshlarga xabar berish lozim. Doimo esda tutish keraki, agar notanish insonlar ko'p miqdordagi mukofot pulini yutganligingizni ta'kidlashsa hamda buning uchun plastik karta ma'lumotlarini so'rashsa, bu firibgarlikning bir ko'rinishi hisoblanadi. Har doim «faqat 18 yoshdan oshganlar uchun» qabilidagi saytlarga kirmaslik maqsadga muvofiq. Saytlardagi bunday ogohlantirishlar o'smirlarning himoyasi uchun maxsus yaratilgan



bo'ladi. Xulosa tarzida shuni ta'kidlash mumkinki, internet insonlar hayotida muhim rol o'ynaydi va hozirgi vaqtda turmush tarzimizni usiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu holatni ijobiy yoki salbiy deb atash qiyin bo'lib, unga faqat kishilar hayotida undan qanday foydalanishiga qarab baho berish mumkin. Zero, agar u inson internetga qaramlikni yoki sog'likka zarar yetkazishni tanlasa, kelajakda uning hayoti va faoliyatida ham salbiy holatlar paydo bo'ladi. Aksincha, internetni ijobiy maqsadlarda ishlatish shaxs taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. 2020-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan yoshlar bilan o'tkazilgan videoselektoridan.
2. G'oziyev.E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.
3. V.Karimova, F.Akromova, N.Lutfullayeva. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2011
4. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
5. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
6. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.
7. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
8. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
9. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.